



The heroism of the Uzbek people in ensuring the defense of Moscow during World War II (1941-1942)

Mirzokhid ZOKIRJANOV¹

State Museum "Shon-sharaf"

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

Second World War,
Uzbekistan,
labor resources,
defense of Moscow,
Panfilov's men,
Day of Remembrance and
Honor.

ABSTRACT

This article illuminates the defense of Moscow during World War II, highlighting the valor of our compatriots in the battles for the city. It explores the heroism displayed by our people in safeguarding the Homeland and addresses the issues surrounding the perpetuation of their memory.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss9/S-pp229-234>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston xalqining Moskva mudofaasini ta'minlashdagi jasoratlari (1941-1942-yillar)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ikkinchi jahon urushi,
O'zbekiston,
mehnat resurslari,
Moskva mudofaasi,
panfilovchilar,
Xotira va qadrlash kuni.

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Moskva shahrini mudofaa qilish va unda Vatandoshlarimizning jasoratlari, Moskva uchun janglarda ko'rsatgan qahramonliklari, xalqimiz Vatan himoyasidagi qahramonliklari, xotirasini abadiylashtirish masalalari yoritib beriladi.

¹ Junior Researcher, State Museum "Shon-sharaf".

Подвиги народа Узбекистана в обеспечении обороны Москвы в период Второй мировой войны (1941-1942 годы)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Вторая мировая война,
Узбекистан,
трудовые ресурсы,
оборона Москвы,
панфиловцы,
День памяти и почестей.

В данной статье освещаются вопросы обороны города Москвы в годы Второй мировой войны, подвиги наших соотечественников, героизм, проявленный в боях за Москву, героические поступки нашего народа в защите Родины, а также вопросы увековечения их памяти.

Xalqimiz azaldan og'ir sinovlarda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda bukilmas iroda, mardlik, matonat va jasorat na'munalarini amalda namoyon etgan qahramonlarini hamisha e'zozlab kelmoqda, o'z ozodligi va erkinligi uchun kurashgan behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati hech qachon xalqimiz yodidan chiqmaydi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli urush bo'lgan, urushda frontga ketgan 2 milliondan ziyod O'zbekistonliklardan 500 mingdan ziyodi halok bo'lganini xalqimiz hech qachon unutmaydi bu so'zlar davlatimiz rahbarining sohaga daxldor qarorlarida ham qayd etilgan. Ma'lumot uchun aytish kerakki so'ngi 10-yil ichida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Vatanimiz mustaqilligi uchun kurashgan milliy qahramonlarimizning xotirasini abadiylashtirish hamda yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bugungi kundagi eng asosiy milliy qadriyatlarimizdan biridir, shuningdek bu borada muhtaram Prezidentimizning ham diqqat e'tiborlaridadir [1].

Bashariyat tarixidagi qonli urush Ikkinchi jahon urushidir. Unda ko'plab qurbonlar berilgan, dahshatli janglardan biri Moskva shahri uchun kechgan jang hisoblanadi. Jang ikki bosqichda kechgan bo'lib 1941-1942-yillarda sodir bo'lgan, birinchisi Mudofaa bosqichi 1941-yil 30-sentyabrdan 1941-yil 5-dekabr kunigacha bo'lgan. Bu bosqich doirasida Moskva shahriga yaqinlashib kelayotgan nemis-fashist bosqinchilarining hujumini qisqartirish maqsadida 1941-yil kuz-qish oylarida "Oryol- Bryansk", Rjev-Vyazma mudofaa operatsiyalari amalga oshirilgan, shu davrlar ichida Moskvani himoyalashda G'arbiy, Janubi-G'arbiy, Bryansk frontlari qo'shini ishtirok etadi. Jumladan Fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining 1941-yil sentyabr oyida Moskvani bosib olish uchun amalga oshirgan operatsiyasi "Tayfun" operatsiyasi nomini oladi, ikkinchi bosqich hujum operatsiyasi bosqichi bo'lib 1941-yili 5-dekabr kunida boshlangan va 1942-yilning 20- yanvarigacha davom etadi, Qizil Armiyaning kutilmaganda amalga oshirgan fashistlarga qarshi hujumlari natijasida Moskva atrofi dushmandan ozod qilinadi [2].

1941-yil sentyabr oyida Fashistlar Germaniyasi qo'shinlari qo'mondonligining asosiy maqsadi urushning dastlabki harakatlar rejasida, ya'ni 12 kun ichida Leningrad yoki Moskvani bosib olish edi. shu maqsadda 1941-yil 26-sentyabr kunida " Markaz" armiya guruhi qo'mondoni Fyodor fon Bokning alohida maxsus buyrug'i qabul qilinadi,

unga binoan nemislarning “ Markaz” armiya gruppasi Moskvani himoyalab turgan Sovet qo‘shinlarining asosiy kuchlarini qurshab olishlari va tor-mor qilishlari lozim edi, shuningdek urush harakatlari shimolda Kalyazina- Rjev, Smolensk shaharlari ostonasida va Janubda Oryol- Bryansk shaharlari yaqinida kechadi. Mudofaa bosqichi doirasida Sovet armiyasi Moskvani himoyalash uchun “ Oryol-Bryansk”, “ Vyazma-Mojaysk” mudofaa operatsiyalarini amalga oshiriladi va bu janglar nemislarning Moskvaga siljishini sekinlashtiradi [3].

Moskva uchun jangga safarbar qilingan nemis-fashist armiyasi quyidagi tarkibda bo‘lib: 1 929 406 askar va ofitserlar, 78 ta diviziya, 1700 tanklar, 14 000 ta to‘p va minomyotlar, 1 390 ta samolyotdan iborat bo‘lib ularga Adolf Gitler, German Gott, Albert Kiselring, X. Guderian, G.fon. Klyuge, F.fon. Bokk, E. Gyopner, E. Pyuolar qo‘mondonlik qilishdi, ular OKX qo‘mondonligi buyrug‘iga binoan nemis-fashist qo‘shinlarini Moskvaga yo‘naltira boshladilar, nemislarning “ Markaz” va “ Janub” armiyalari guruhi tarkibida kattagina qo‘shin jamlangan edi. Nemis aviatsiyasi esa Moskva va uning atrofini razvedka qilish hamda muhim sanoat markazlarini yo‘q qilish yuklatilgan edi . Moskvani qo‘ldan boy bermaslik hamda poytaxtni saqlab qolish uchun Sovet davlati rahbariyati tomonidan zaruriy choralar ko‘riladi, ayniqsa Stalin mamlakat poytaxtini mudofaa qilish maqsadida keng qamrovda aholini mudofaa inshootlarini qurishga safarbar qila boshlaydi, shunga binoan poytaxt Moskva shahrini mudofaa qilishga safarbar qilingan sovet qo‘shinlari 1 250 000 kishini tashkil etgan bo‘lib uning tarkibida 96 ta diviziya, 990 ta tank, 7 600 ta to‘p va minomyotlar, 667 ta samolyotlar mavjud edi. Bu harbiy tuzilmalar dushmanlarni Moskva ostonalarida to‘xtatib qolishga erishiladi, shuningdek marshal G.K. Jukovga esa poytaxt atroflarida mudofaa inshootlari va tankka qarshi transheyalar qurish haqida topshiriq beriladi [4].

1941-yil 15-oktyabr kunda SSSR Davlat Mudofaa Qo‘mitasi tomonidan Moskvadan aholini evakuatsiya qilish haqida qaror chiqariladi va zudlik bilan aholini muhofaza qilishga kirishiladi, poytaxt Moskva shahrini himoyalashga qaratilgan Qizil Armiya qo‘shinlariga o‘z davrining rahbarlari, mohir sarkardalari I. V. Stalin, S.K. Timoshenko, G.K. Jukov, I.S. Konev, A. I. Yeryomenko, polkovnik Lukin, B.M. Shaposhnikov, K.K. Rokosovskiy va P.A. Belovlar qo‘mondonlik qilishadi, shuningdek nemis-fashistlar generali Guderianing tanklari Moskvaga yaqinlashib kela olmadi, chunki Jukov mamlakat poytaxtining himoyasiga yangidan-yangi kuchlarni safarbar qilar edi, shunga qaramasdan Gans Guderianing tanklari Bryansk ostonalarida sovetlarning asosiy armiyasini qurshovga olishga erishadi. Ammo behisob qurbonlar evaziga Sovet armiyasi qo‘shinlari qurshovdan chiqib ketishga ulguradi [5].

Shuningdek Sovet Armiyasining 1941-yil 5-dekabr kunda amalga oshirgan hujum operatsiyasi Moskvani dushman qo‘shinlaridan ozod qilinishiga olib keladi. 11 ming aholi yashaydigan turar joylar nemis-fashist bosqinchilaridan ozod qilinadi va Moskva ostonasidan 100-250 kilometr nariga uloqtirib tashlanadi. Moskva uchun jang Ikkinchi jahon urushidagi Fashistlar Germaniyasining birinchi bor yirik mag‘lubiyatlaridan biri

edi. Yengilmas, kuchli nemis-fashistlar armiyasi haqidagi tarixiy afsona inqirozga uchradi. Mag'lubiyatli jangdan so'ng Germaniya ittifoqchi davlatlari Yaponiya va Turkiya hukumatlari Germaniya tomoniga qo'shilmay chekinishadi. Bu haqida tarix fanlari nomzodi, tarix va huquq fanlari oliy toifa o'qituvchisi Vasiliy Kostetskiy muxbirlarga shunday ma'lumotlar beradi. Yana shuni ta'kidlaydiki, O'zbekistonlik jangchilar Moskva ostonasida jang qilib qahramonlik ko'rsatadilar. Bunday muvaffaqiyatli harbiy operatsiyani bajarishda va Moskvani himoya qilishda O'zbekistondan safarbar qilingan diviziya tuzilmalari asosiy rolni o'ynaydi, harbiy hamkorlikda janglarda ishtirok etadilar: general Ivan Vasilyevich Panfilov qo'mondonligida 316- diviziya, polkovnik Beloborodov qo'mondonligidagi 78-diviziya, polkovnik Polosuxin qo'mondonligidagi 32 diviziya, general Lebedenko qo'mondonligidagi 50 – diviziya , 258-o'qchi diviziya , 12-gvardiya diviziya va 44-kavaleriya diviziyalari jang qilishgan. Fashist bosqinchilariga qarshi kurashda unutilmas jasorat ko'rsatgan 316-o'qchi diviziyasi alohida ajralib turar edi, uning tarkibini 180 ta Toshkent harbiy va harbiy –siyosiy bilim yurti kursantlari tashkil qilardi. Diviziyaga general-mayor Ivan Panfilov qo'mondonlik qilgan. Urushgacha bo'lgan davrda u Toshkent harbiy bilim yurti kursantlariga jang qilish yo'llarini o'rgatgan edi, urush davrida esa jang maydonida panfilovchilar jasorat ko'rsatib 26 ming askar va ofitserlarni qirib tashlaydilar. Panfilovchi –gvardiyachilar orasida vzvod komandiri leytenant Ikrom Jalilov, harbiy shifokor G'ulom Abdukarimov, leytenant Mamadali Madaminov, Abdulla Tog'ayev, Samad Niyozov, Muhammad Ibragimov, Ibod Turdiyev, Umar Toirov, Mahmud Rustamov, Eshonqul Jo'rayev, Xayrullo Tojiboyev va boshqalar qahramonona harakatlari bilan ajralib turar edilar[6].

258-o'qchi diviziya jangchilari 9 ming dushman askari va ofitserlarini yo'q qilib, 137 ta aholi yashaydigan joylarni ozod qilishgan, bundan tashqari Upa daryosini birinchilardan kechib o'tib, ko'p miqdordagi dushman jangovar texnikalarini qo'lga kiritishgan. Bunday jasorat uchun quydagi diviziyaning komandir va xodimlari: B.Urazayev, G.Tolipov, M. Bektemirov, V. Kashapov va boshqalar orden hamda medallar bilan taqdirlanganlar.

Moskva uchun jangda o'zbek jangchilaridan tuzilgan 1-2-kavaleriya korpuslari qatnashgan, ularga generallar Belov va Dovatorlar qo'mondonlik qilishgan. Mohir jangchilar safiga: pulemyotchi T. Sharafudinov, serjant D. Otaboyev, tibbiy targ'ibotchi A. Zulfiqorov, Abdulla Tagayev, M. Madaminov singari askarlar kirar edi. 1-otliq-chavandozlari guruhidan esa X.Musayev, R. Abduqosimov, A.Abdullayev, bo'lim komandiri R. Aliyev, vzvod komandiri X. Bektursunov va boshqalar ham shular jumlasidandir.

Moskva ostonasida nemis-fashist bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan 1 753 ta o'zbek jangchilarini Sovet hukumati “ Moskva mudofaasi uchun” maxsus medallari bilan taqdirlagan. Ulardan Madaminjon Xasanov, Galli Azizov, Xalil Adilov, Ubaydullo Ibragimov, Vitaliy Kalinin, Dmitriy Pilinyuk, Rashid Xabibulin, Shohidoy Abdullayev, Yelena Kaznacheyava, Xanif Shadaminov, Vasiliy Rassoxin, Aleksandr Adamets, Abdulla

Ayupov, Xannan Izmaylov, Abduvosiq Abdullayev, Muxtor Rasulov, Boqijon Ismoilov va boshqalar edi.

1941-yil 5-dekabrdagi jang tarix sahifalarida o'chmas xotiralar bilan muhrlanib qoladi, qonli va dahshatli jang maydonlari insoniyat hayotidagi mudhish voqealar edi. Tinch, osuda va farovon hayot uchun millionlab askarlarning hayoti qurbon bo'ldi, hozirgi kunda ularning xotirasiga 1941-1945-yillarda shahid ketganlar qabristoni, Mangu olov, Motamsaro ona haykali, G'alaba bog'i va "Shon-sharaf" muzeylariga turli xil yoshlar va har xil millatdagi insonlar gullar bilan kelib, mard-qahramon jangchilar xotirasini va jasoratini abadiy xotirlashadi.

Mamlakatimizda 9-may "Xotira va Qadrlash kunidir". Umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi, shuningdek Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan Vatandoshlarimiz xotirlanadi. Xalqimiz jonini fido qilgan mard o'g'lonlarini hech qachon unutmaydi. Ularning mangu xotirasi hamisha qalblarimizda abadiy qoladi [7].

XULOSA

Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan barhayotdir. Xotira insonni o'tmishi, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni muqaddas kitob zarvaraqlaridek yoritib turadi, Qadr esa insonni komillikka yetaklaydi, binobarin Ikkinchi jahon urushida bukilmas iroda, matonat, mardlik na'munalarini amalda namoyon etgan, aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, kelajak avlodlarning tinch totuv yashashi, bugungi dorilamon kunlarga yetib kelishi uchun jonini ayamagan ajdodlarimizning xotirasini yod etmog'imiz lozimdir, bugungi tahlikali zamonda dunyoning turli mintaqalarida global xavf-xatarlar kundan kunga tobora orta boshlagan bir paytda biz tinchlikning qadriga yetmog'imiz, tinchlik va mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimizga hurmat bajo keltirish biz uchun ham qarz ham farzdir. Moskvadek ulkan shaharni himoyalashda xalqimizning ko'rsatgan qahramonliklari biz uchun chinakam hayot maktabi bo'lmog'i lozimdir, xalqimizning qadr qimmatini, or-nomusini, milliy manfaatlarimizni himoya qilib kelgan otabobolarimizning jasorati hamisha xalqimiz tarixi sahifalarida abadiy qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr kunida PQ-4495-sonli "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75-yilligini munosib o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-may kunidagi PQ-143-sonli "9-may Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
3. Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston Tarixi 1917-1991-yillar Toshkent Sharq 2012
4. Lidel Gart B. Vtoraya mirovaya voyna.- Moskva.: AST, 2003
5. Amelkin A.O. Slavnyye dni Rossii \\\ Voyennyye ocherki.- Moskva.: AST 2005
6. Bok F. fon. Ya stoyal u vorot Moskvy \\\ Voyennyye memuary.-Sankt Peterburg.: Tip, 1987

7. Bandina N.G. Moya jizn.- Sankt Peterburg 2004
8. Materialы Ispolnitelnogo komiteta SNG \\ <https://www.ias.ru>
9. Materialы Posolstvo Respubliki Uzbekistan v Ukraine \\ <https://uz.ua.ru/com>
10. Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Markaziy arxivi hujjatlari
11. O'zbekiston Respublikasining Ukraina Respublikasidagi elchixonasi hujjatlari
12. Lepyoxin A.N. Bitva za Tulu.- Tula.: Izd-vo Alpina, 1961
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-may kunidagi "9-may Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni munosib nishonlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan \\ <https://www.lex.uz>
14. Lidel Gart B. Vtoraya mirovaya voyna . Moskva.: AST 2003.- S 245-456
15. Bardina N.G. Moya jizn aftobiograficheskiy povest.- Vigraf 2004.-S 159
16. Berejkov V.M. Stranisy Diplomaticheskoy istorii 4-ye izd-vo.- Moskva.: Mejdunarodnyx otnoshenii., 1987.-S 118-120-616
17. Biryukov N.M. Tanki na frontu zapiski sovestkogo generala.- Smolensk Russich 2005 S. 126
18. Besmertnyy podvig voyinov Uzbestansev <https://Podrobno.uz.com>
19. Isayev A.V. Krug tretii v moskovskom napravlenii 41-go. Moskva.: Eksmo, 2005. S 400